

KIRISH SO‘ZI

Assalomu alaykum!

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy-amaliy elektron jurnalining aziz mushtariylari va mualliflari!

Jahon iqtisodiyoti globallashtirish jarayonining chuqurlashuvi, raqobatning keskinlashuvi, ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish darajasini oshirishda sifat ko‘rsatkichlarining ustuvorligi sharoitida innovatsion iqtisodiyot sohasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati tobora ortib bormoqda. Mazkur sohalar rivojlanishi bilan bog‘liq ob‘ektiv zarurat aholi turmush darajasi sifatini yuksaltirish barobarida ish bilan bandlik ko‘rsatkichining ortishiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko‘rsatish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 75 foizni va ish bilan bandlar salmog‘i 70 foizdan ortiqni tashkil etmoqda. Iqtisodiyot tarmoqlarining xizmat ko‘rsatish sohasidagi bandlik Yevropaning rivojlangan mamlakatlarida 75, AQShda 80, Yaponiyada 82 foizdan ortadi. Aynan shu nuqtai nazardan dunyo miqyosida innovatsion rivojlanishning eng zamonaviy turlarini ishlab chiqishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahon tajribasi barcha sohalarda sifatli o‘shirishni ta‘minlovchi yangiliklarni uzluksiz tarzda amalga joriy etish jamiyat va iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchiga aylanganligini ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda rivojlanishning innovatsion modellari va “aqlli” texnologiyalar amalga oshirilayotgan mamlakatlar eng muvaffaqiyatli va barqaror hisoblanadi. Bunday mamlakatlarning izchil taraqqiyoti, ularning jahon bozorlarida raqobatbardoshligi tabiiy resurslarni eksport qilish va jismoniy mehnatdan foydalanishga emas, balki innovatsion g‘oyalarni, ishlanmalarga asoslanadi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti hozirgi ilg‘or texnologiyalar asrida mamlakatning innovatsion rivojlanishi, eng avvalo, aholi turmush darajasini yaxshilash va uning farovonligini yuksaltirishdek ezgu maqsadlarga yo‘naltirilgan. Ushbu maqsadni ro‘yobga chiqarish yo‘lida jamiyat va davlat hayotini har tomonlama rivojlantirish hamda mamlakatimizning intellektual va texnologik salohiyatini kuchaytirishni nazarda tutuvchi qator vazifalarni kompleks tarzda hal etish talab qilinadi. Bu borada respublika iqtisodiyoti tarmoqlari va ijtimoiy sohani innovatsion rivojlantirish, ilm-fan va ilmiy faoliyatni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va natijadorligini yaxshilash bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ilm-fan va innovatsiya sohasida davlat boshqaruvi mexanizmlarini takomillashtirish, ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlarini shakllantirishda shaffoflikni ta‘minlash hamda iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarda ilm-fan yutuqlari va innovatsion texnologiyalarni joriy etish ishlarini jadallashtirish lozimligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 1 apreldagi “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6198-sonli Farmoniga muvofiq, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar rivojlantirilishi hamda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash jarayonlariga tatbiq etishni rag‘batlantirish bo‘yicha amaliy mexanizmlar yaratish, fan va ishlab chiqarishning yanada mustahkam aloqasini ta‘minlash maqsadida, shuningdek

ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda real sektor korxonalari o'rtasida innovatsion hamkorlik aloqalarini o'rnatish borasida oliy ta'lim muassasalari oldiga bir qator vazifalar qo'yildi.

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti iqtisodchi olimlarining tashabbusi bilan mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini barqaror oshirish uchun zarur sharoitlarni ta'minlashga qaratilgan ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish zamonaviy infratuzilmasini shakllantirish maqsadida institutimizda "Innovatsion iqtisodiyot" ilmiy-amaliy elektron jurnali tashkil etildi.

"Innovatsion iqtisodiyot" jurnali Tahririyat Kengashi a'zolari ilm-fan va tadqiqot natijalarining ochiqligi va hammabopligi tarafdori. Jamiyatning axborotlashishi va aloqa vositalarining takomillashuvi natijasida, shuningdek, ulardan foydalanish qulayligi sababli, elektron jurnallar zarur ma'lumotlarga ega bo'lish vositasi sifatida muhim rol o'ynamoqda.

Ilmiy jurnalning asosiy maqsadi jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, ilm-fanning turli sohalaridagi ilmiy yutuqlarni tahlil qilish hamda tizimlashtirish orqali olimlar va barcha ilm ahlini ushbu yutuqlarning hayotga tatbiq etilayotganligi haqida xabardor qilishdan iborat. Elektron jurnal sahifalarida milliy va xorijiy mualliflarning zamonaviy iqtisodiyot fanlariga doir innovatsion yutuqlari va istiqbollar borasidagi ilmiy maqolalari e'lon qilinadi. Ushbu nashr iqtisodiyotning barcha sohalarini qamrab olish imkoniyatiga ega bo'lib, uning rivojlanishiga xizmat qiladi.

"Innovatsion iqtisodiyot" ilmiy-amaliy elektron jurnalida mualliflar o'z maqolalarini iqtisodiyotning nazariya va metodologiyasi, raqamli iqtisodiyot, mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, inson kapitali iqtisodiyoti, menejment va marketing, buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit, moliya, kredit va investitsiya, ekonometrika, statistika hamda xizmatlar sohasi masalalariga qaratishlari tavsiya etiladi.

2023 yilning mamlakatimizda "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb nomlanishi Yangi O'zbekistonning taraqqiy etishida, inson kapitalining har tomonlama kamol topishiga erishishda sifatli ta'limning o'rni beqiyos ekanligiga dalolatdir. Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida, malakali va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlanishida oldimizda turgan dolzarb masalalarning birgalikda hal etilishiga umid qilamiz.

Fursatdan foydalanib, jurnal o'quvchilariga, tahririyat a'zolariga ijodiy barkamollik tilayman. "Innovatsion iqtisodiyot" ilmiy-amaliy elektron jurnalining faoliyati tobora yuksalishini, nafaqat yurtimizdagi, balki jahondagi nufuzli ilmiy nashrlardan biriga aylanishini niyat qilamiz. Boshlagan sharafli, mashaqqatli va ayni damda xayrli ishlaringizda muvaffaqiyat tilayman.

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti rektori
O. Bazarov